



Materials of the international scientific- educational conference

“PROMOTION OF THE UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE IN THE WORLD: RESULTS AND OBJECTIVES”

26 October, 2021

ACADEMY OF SCIENCES OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN



Tashkent - 2021



**UZBEKISTAN ACADEMY OF SCIENCES
INSTITUTE OF UZBEK LANGUAGE, LITERATURE AND FOLKLORE
UZBEKISTAN WRITERS' UNION
REPUBLICAN CENTER OF SPIRITUAL AND ENLIGHTENMENT
MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIAL EDUCATION**

Materials of the international scientific-educational conference

**“PROMOTION OF THE UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE
IN THE WORLD: RESULTS AND OBJECTIVES”**

October 26, 2021

TASHKENT – 2021

This scientific collection consist of materials the international scientific-practical conference "Promotion of the Uzbek language and literature in the world: results and objectives" held on October 26, 2021 at the Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore of the Uzbekistan Academy of Sciences in cooperation with the Writers' Union, the Republican Center for Spirituality and Enlightenment and the Ministry of Higher and Secondary Special Education.

The materials of the collection can be used by philologists, researchers, teachers of native language and literature, as well as master's and bachelor's students.

The authors are responsible for the scientific level of the articles.

Editorial board:

- | | |
|-------------------|--|
| N.Mahmudov | - Director of the Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore |
| N.Jonuzokov | - First Deputy Chairman of the Writers' Union of Uzbekistan for Creative Affairs |
| Sh.Sirojiddinov | - Rector of Tashkent State University of Uzbek language and literature |
| M.Otajonova | - Deputy Director for Science of the Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore |
| G.Ismoilov | - Scientific Secretary of the Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore |
| U.Hamdamov | - Head of the Department of the Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore |
| I.Hakkulov | - Head of the Department of the Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore |
| D.Khudoyberganova | - Head of the Department of the Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore |
| Y.Odilov | - Head of the Department of the Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore |
| E.Ochilov | - Senior scientific researcher of the Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore |
| J.Eshonkulov | Leading scientific researcher of the Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore |
| M.Asadov | - Leading scientific researcher of the Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore. |

Compilers and publishers:

Ismoilov Gulom Mirzaevich

Saydaliyeva Mukhlisahon Bakhtiyor kizi

Askarova Jamilaxon Bahodirovna

Mukimova Zohida Rasulovna

Allambergenov Anvar Erkaboyevich

Recommended for publication by the decision of the Academic Council of the Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore of the Uzbekistan Academy of Sciences dated December 2, 2021.

UDC: 811.512.133 (06.53)

811.111

811.521

82/821.0

OMON MUXTORNING ADABIY-TANQIDIY QARASHLARI XUSUSIDA

Shoira Axmedova*

Annotatsiya. Maqolada O’zbekiston xalq yozuvchisi Omom Muxtorning adabiy-tanqidiy qarashlari haqida fikr yuritilgan. Adibning adabiy jarayon haqidagi mulohazalari tahlil qilingan.

Tayanch so’zlar: tanqidiy qarashlar, adabiy jarayon, yozuvchining adabiy o’ylari, roman, tanqidchi, esse.

XX asrning 30-yillarda adabiy tanqidni rivojlantirishga Oybek, G’afur G’ulom, Uyg’un, Hamid Olimjon va boshqalar, 40-yillarda esa M.Shayxzoda, A.Qahhor va boshqalar katta hissa qo’shib keldilar. Har bir davrda, bu davr adabiyoti, adabiy tanqidni rivojida munaqqidlar bilan bir qatorda adiblar ham faoliyat ko’rsatib kelganlar. Bu sohada, ayniqsa, iste’dodli o’zbek adiblari O.Yoqubov, P.Qodirov, Sh.Xolmirzayev, Omom Muxtorlarning o’rni alohida e’tiborga molik. Bu adiblar ustozlar an’analarini davom ettirib, badiiy ijod bilan birga adabiy jarayonga e’tibor bilan qarab, adabiy tanqid rivojiga, uning takomiliga o’z hissalarini qo’shib keldilar.

O’zbekiston Respublikasi san’at arbobi, Davlat mukofoti laureati, shoir va yozuvchi Omom Muxtor ham badiiy ijod bilan qatorda adabiy tanqidning kurashchanlik ruhi, adabiyotni yuksaltirish jarayoniga ta’siri, xalqimizning estetik didi tarbiyalash borasidagi roli, ijtimoiy mavqeini oshirish masalalariga e’tibor qaratdi. Uning qator maqolalari, adabiy o’ylari, taqrizlari, adabiy-tanqidiy suhbatlari fikrimizning yorqin dalilidir.

Omon Muxtor adabiy jarayon haqida fikr yuritar ekan, o’z davrining faol adibi, jonkuyar publisisti sifatida ham ko’rinadi. Buni adibning “Vaqt, zamon mezoni” deb nomlangan maqolasida ham ko’rish mumkin. Bundan tashqari adib tanqidchilar bilan qilgan suhbatlarida ham adabiy jarayon, o’zining ijodi, yaratilgan asarlari haqida kitobxonlarga keng ma’ulmot beradi. “Har kimning o’z zamin, o’z osmoni bor...” deb nomlangan davra suhbatni

* BuxDU o’zbek adabiyoti kafedrasini professori, f.f.d. Email: axxxmedova@mail.ru

adabiyotshunos Ahmad Otaboy bilan olib borilgan. Suhbat adabiyotimiz tarixida yaratilgan boshqa tur va janrlardagi mumtoz namunalar bilan qiyoslaganda o’zbek nasri, shu jumladan, roman janrining shakllanish bosqichi haqida boradi. Omon Muxtor o’zbek nasrining qadimiyligi, o’zbekning o’z rivoyatlari, ertaklari, dostonlaridagi nasr namunalari ming yillik nasrimiz haqida faxrlanib gapiradi. Uning romanchilik haqidagi quyidagi fikrlaridan tanqidchi qiyofasini ko‘rish mumkin: “To‘ntarishdan keyingi yillarda dunyo adabiyotidan o’rgangan holda Qodiriy, Cho‘lpon, Fitratlar chiqdi. Ularning tafakkur ko‘lami olamiy edi, to‘g‘rimasmi? Ular umuminsoniy muammolarni qalamga olishga harakat qilishdi. Chunonchi, “O’tkan kunlar”da faqat tarixni ko‘rsatish emas, faqat oilaviy munosabatlardagi murakkabliklarni ko‘rsatish emas, balki umuminsjniy masalalar birinchi o‘rinda turadi. Inson qismati, inson tafakkuri masalasi Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanida ham baland turadi. Fitratning nasriy asarlari, “Me’roj”, “Qiyomat” hikoyalarni oling, ulardagi qarashlarga, qo‘shilish, qo‘silmashlik mumkin, bu boshqa masala, ularda davrni ko‘rsatishdan ko‘ra inson tafakkuri ko‘proq aks etgan” [O.Muxtor, 2000: 236].

Omon Muxtor yosh ijodkorlar haqida fikr yuritganda, ustozlardan o‘rganish bilan bir qatorda, kichiklardan ham o’rganganligi, Asqar Qosim xotirasiga bag‘ishlab yozgan bir she’rida bunga urg‘u bergenligini ta’kidlaydi. XX asrning 80-yillari yoshlar nasrida yangi bir havo, kengayish yuz bergenligi, she’riyatda bu yangilanish undan ham oldinroq boshlanganligiga to‘xtaladi. Yosh ijodkorlarning G‘arb, ko‘proq G‘arb adabiy tajribalarini o‘rganib, nasrimizga yangiliklar olib kela boshlaganini ma’qullaydi. Shu bilan birga hozirgi yosh ijodkorlar asarlarida G‘arbning ta’siri kuchli ekani, bunday asarlarning ayrimlari esa o’zbek yozuvchisi yozgandan ko‘ra, chet tildan tarjima qilingan o‘xshab turishi, Sharqqa xos ruh yo‘qligi, so‘nikroq, qorong‘iroq, jonsizroq chiqqanligi uni qanoatlantirmaydi.

Yozuvchining ijod jarayonining borishi haqidagi mulohazalari ham e’tiborni tortadi. Omon Muxtor yosh hamkasblari, ijodkorlarning bizdan kattaroq ishlar qilishga qodirligiga ishonadi. Buning uchun faqat chinakam bilim, jur’at-jasorat, mehnatdan qo‘rmaslik hissini o‘zida tarbiyalash keraqdeb hisoblaydi.

O’zimizning zaminga oyog‘imizni mustahkam qo‘ygan holda yuksak mezonlardagi tafakkur bilan fikr yuritish zarurligini ta’kidlaydi.

Adabiyotshunos Y.Solijonov bilan qilgan suhbatida o’zbek adabiyotiga shunday baho beradi: “ Qanday bo‘lmasin, bizning adabiyotimiz katta Adabiyot. Jahonga ko‘z-ko‘z qilsa arziydigan.Adabiyotshunos ham, yozuvchi ham mana shu – buyuk Adabiyot, shu Vatan, shu Xalqning bo‘y-bastiga qarab ularga munosib ish tutmasligining iloji yo‘q” [Omon Muxtor, 2011: 270].

Omon Muxtor suhbatlar jarayonida o‘zining bilim doirasi kengligini, adabiy jarayonga munosabatini yaqqol namoyon qila olganini ko‘rish mumkin. Shu bilan birga kitobxon adibning ijod labaratoriysi sirlaridan, asarlarining yozilish jarayonidan ham xabardor bo‘ladi.

Omon Muxtor keksa adib sifatida ustozlar an’anasini davom ettirib, bugun o’zbek adabiyotida yaratilayotgan asarlarga ham e’tibor qaratadi. Yangi va yaxshi asar uni quvontiradi. Buni adibning quyidagi mulohazalaridan bilish mumkin: “Keyingi yillarda adabiyotimiz, uning bir bo‘lagi nasr jiddiy ko‘tarilish arafasida turibdi, degan tasavvurdaman. Bir tomondan, ijodkor yoshlar tarbiyasiga ko‘rsatilayotgan e’tibor, ikkinchi tomondan, bu kun e’lon qilinayotgan yaxshi, ta’kidlab o’tishga loyiq asarlar tasavvurimni kuchaytiradi”. U iste’dodli adib Erkin A’zamning “Shovqin” romani va yosh adiba R. Haydarovaning “Javzo” romaniga baho berar ekan, Erkin A’zamning kichik bir holatdan katta bir jahoniy mazmunga chiqib borishi, taniqli, tajribali yozuvchiga xos, tor doiradagi kishilar hayoti ko‘zgusida davr va umuminsoniy qadriyatlarga nazar tashlashi, hayotning o‘zi yaratgan turfa qiyofalar galereyasini tuzishi, asar qahramonlari roh yig‘iq, roh parishon holda turli muammolarga duch kelib, doimiy harakatlanib turishini ma’qullaydi. Yosh adibaning muayyan tarixiy voqeani aniq belgilashi, Husayn Boyqaro vafotidan keyin ro‘y bergen parokandalik tasviridan xalqimiz uchun doim muhim bo‘lgan ahillik mehr-oqibat xususida yaxlit ma’no keltirib chiqara olgani, ikkala asarda ham til o’zbekona, jozibali ekanligidan quvonadi.

“Ruh butunligidan yozish mahorati yuzaga keladi. Mahoratni esa ijodkorning bilimi, savod darajasi shakllantirib boradi. Aslida ruhni ham shakllantiradigan shudir”. Adibning bunday xulosalari

bugungi davr kishisini bir oz bo‘lsa-da, sergaklantiradi. Adabiyotga kirib kelayotgan yoshlarga saboq bo‘lishdan tashqari adabiyotning, so‘zning mas’uliyatini his etishlarida dasturlamal bo‘la oladi.

Omon Muxtorning tanqidchi sifatidagi bir fazilati adabiy jarayondagi yangi tamoyillarni sezib olishi va ular haqida ham birinchi bo‘lib mulohaza yuritishga oshiqishidir. “Bir ijodkor sifatida, insoniy xislatlarni o‘rgangan adabiyotning bu kungi ahvoli, yozuvchi shaxssi, darajasi, uning hayotdagi o‘rni, mavqeiga befarq qaramayman. Menga har qachongidan ham muhim tuyuladi...

Mustaqillik bizning yurtimizga to‘liqib-toshib keldi. Odamlarimiz tafakkurini kengaytirib yubordi. Birinchi, dunyodan xabardorlik!. Ikkinci, noma'lum o‘tmish sahifalarini ko‘rish! Uchinchi. Ota-bobolar suyangan din va falsafa ildizlari! O’zbek adabiyoti xuddi shu havodan nafas ola boshladi... [Omon Muxtor, 2011: 185].

Bu hozirgi kunda butun bir jarayonni kuzatib, o‘rganib, uni bor bo‘yi bilan tahlil qilish juda mushkul, ammo adibning bugungi adabiy jarayonda kechayotgan yangiliklar haqidagi mulohazalari o‘quvchini befarq qoldirmaydi. Adib o‘zbek adabiyotining hozirgi ahvolini o‘rganganda, unga umuman jahon adabiyoti taraqqiyoti darajasi va mezonи bilan yondoshadi. Shu bilan birga Omon Muxtorning ustozlari Maqsud Shayxzoda, Oybek, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Zulfiya, Mirtemir ijodlari haqidagi kuzatishlari va maqolalari ham adabiy jarayonda o‘ziga xos o‘rin tutadi, adabiy tanqidchilikning rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi.

Omon Muxtor mustaqillikka erishgan kunlarimizda ham adabiy jarayonni muttasil va sinchkovlik bilan kuzatib borib, o‘zining salmoqli tadqiqotlarini e’lon qilgan edi. Ayniqsa, uning yangicha ruhdagi adabiyot va uning rivoji, modernizmga munosabati haqidagi maqolalari bugungi yosh adiblar va tanqidchilarga o‘rnak bo‘la oladi deb hisoblaymiz.

Omon Muxtorning roman, qissa, hikoyalaridan tashqari maqolalari, adabiy suhbatlardagi qarashlari, adabiy o‘ylari ham kitobxonlar diqqatini torta oladigan darajada yozilganligi e’tiborlidir, shu bois adib ijodining shu qirrasini tadqiq etish muhim vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Омон Мухтор. Тўрт томон қибла. Тошкент. Шарқ НМАК. 2000. 415 б.
2. Омон Мухтор. Узун йўлакдаги икки киши. – Тошкент. O‘zbekiston, 2011. 355 б.
3. Nazarov O‘.Romanda badiiy xronotopning o‘ziga xosligi. – Toshkent. Turon zamin ziyo, 2014. 138 б.
4. Ахмедова Ш. Н. ПРОГРЕСС ПОРТРЕТОПИСАНИЯ В ПЕРИОД ГЛОБАЛИЗАЦИИ В ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ //Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития. – 2019. – С. 12-14.
5. Ахмедова Ш. Н. ЎЗБЕК ВА ФРАНЦУЗ АДАБИЁТШУНОСЛИГИДА ПОРТРЕТНАВИСЛИК ТАРАҚҚИЁТИ //МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА. – 2020. – Т. 3. – №.
6. 3. Ахмедова Ш. Н., Назарова Д. АДАБИЙ ПОРТРЕТ ЖАНРИНИНГ НАЗАРИЙ ЖИҲАТЛАРИ ХУСУСИДА //МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА. – 2021. – Т. 4. – №.
7. Давронова Ш. Адабий таъсир ва ижодийлик //Иностранный филология: язык, литература, образование. – 2016. –Т. 1. – №. 2 (59). – С. 40-46.
10. Қодирова Н. APPEARANCE OF A CRITICAL STYLE IN RELATION TO NEW UZBEK LITERATURE //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
11. Қодирова Н. Научно-литературное мышление и проблема стиля // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
12. Қодирова Н. БАҲС-МУНОЗАРА ЖАНРИДА МУНАҚҚИД УСЛУБИ // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
13. Қодирова Н. Ibrohim Haqqulov ijodida muallif nutqining o‘ziga xosligi // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
14. Садуллоевна Р. Қ. Рауф Парфи Ва Эркин Вохидов Шеърлари Тадқикига Оид Айрим Кузатишлар //Бошқарув ва Этика Қоидалари онлайн измай журнали. – 2021. – Т. 1. – №. 6. – С. 207-210.

Жуманова М. Тилларни ўрганиш ва маданиятлараро мuloқotning ijtimoiy aҳamияти.....	279
ADABIYOTSHUNOSLIK.....	284
Haqqul I. Turkiy davlatlarda o’zbek mumtoz adabiyotining o’rganilishi	284
Muhammad Ali Dinakhel. An analysis of the relations of Babur with Yusufzai Pashtuns in the light of Baburnama	288
Hamdamov U. O’zbek dostonida bengal shoiri Nazrul Islom obrazi (Ramz tili – universal til)	301
Asadov M. Tojikiston va Eronda navoiyshunoslik.....	309
Kenjayeva P. O’zbek-turk hikoyalarida zamon va qahramon ruhiyati tadqiqiI	318
Almaz Ulvi. Milli azadliq mücahidi Ülvi Bünyadzadə	329
Axmedova Sh. Omon Muxtorning adabiy-tanqidiy qarashlari xususida.....	342
To’laganova S. Asarda adabiy makon masalasi	347
Xamrokulova X. “Adabiyot qoidalari” – so‘z san’ati qonuniyati haqidagi asar.....	352
Pardayev Q. Muqimiyning “Sayohatnoma” asari: matn tarixi muammozi	358
Ochilov E. Ogahiy ijodida faxriya san’ati.....	367
Rajabova B. “Olam ma’murlig‘i alardin...”	376

**“O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTINI JAHON MIQYOSIDA TARG‘IB ETISH:
NATIJA VA VAZIFALAR”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-ma’rifiy anjuman materiallari

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar:

Ismoilov G‘ulom Mirzayevich,
Saydaliyeva Muxlisaxon Baxtiyor qizi,
Asqarova Jamilaxon Baxodirovna,
Muqimova Zohida Rasulovna
Allambergenov Anvar Erkaboyevich

Kompyuterda sahifalovchi: M.Saydaliyeva

Tasdiqnoma. 010, 04.12.2021.

Bosishga ruxsat etildi 02.12.2021. “Times New Roman”.

Bichimi 148x210 1/16 Shartli bosma.t. 35. Nashr bosma t. 35. Adadi 150 nusxa.
Toshkent shahri, Shahrisabz tor ko‘chasi 5-uy. “O‘zbek tili, adabiyoti va folklori
instituti”

**“O‘zbek tili va adabiyotini jahon miqyosida targ‘ib etish: natija va
vazifalar”. Xalqaro ilmiy-ma’rifiy anjumanı ilmiy maqolalar to‘plami. –
Toshkent. 2021. - 621 bet.**